MILLIY TARBIYA, MILLIY MA’NAVIYATGA E’TIBORSIZLIK – O‘ZLIKNI ANGLASHGA TAHDIDDIR

Umaraliyeva Muxayyo Abdugaparovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim.

Annotatsiya

Maqola yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, milliy qadriyatlarimizni anglash, turli xil ma’naviy tahdidlardan saqlanish masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Milliy tarbiya, ma’naviyat, odob-ahloq, tahdid, vatanparvarlik, ta’lim-tarbiya, avlod, omil, taraqqiyot, modernizatsiya.

Har bir inson o‘zligini anglashni istaydi. Men kimman, qayoqqa ketyabman, yashashdan maqsadim nima, kimlarning avlodiman, qanday yashashim kerak, kabi savollarga o‘zi yashab turgan davr va o‘z saviyasi darajasida javob axtarishga harakat qiladi.

Albatta, bu savollarga to‘g‘ri va mukammal javob topishda insonning dunyoqarashi, tafakkuri muhim ahamiyatga ega. Bir xil muhit barqaror bo‘lgan oilada tabiati har xil farzandlar voyaga yetishi mumkin. Kimdir axloqan yetuk, jamiyatda o‘z o‘rnini topgan shaxs bo‘lib yetishsa, kimdir jinoyatchi bo‘lib ulg‘ayishi ham mumkin. Bularning zamirida esa yuqorida ta’kidlangan savollarga topilgan to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarning ta’siri yotadi. Ya’ni, xulosalar bizni kelajagimiz va taqdirimizga ta’sir ko‘rsatadi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya ana shunday jarayonlarda muhim rol o‘ynashi shubhasiz.

Hozirgi globallashuv sharoitida aholining keng qatlamlarida, ayniqsa yoshlarda milliy g‘oyaga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini, yuksak ma’naviy-axloqiy qarashlarni tarbiyalashning, ularda mafkuraviy-ma’naviy immunitetni shakllantirishning dolzarbligi yanada oshmoqda. Chunki jahonda axborot huruji, ommaviy madaniyat niqobi ostida mafkuraviy-ma’naviy tahdidlar tobora kuchaymoqda. Milliy tarbiya, milliy ma’naviyat mamlakatimiz va yoshlarimizga qarshi qaratilgan shunday mafkuraviy-ma’naviy xurujlar hamda yovuz kuchlardan himoya qilishda qudratli kuch sanaladi.

Yoshlarimizni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash, ularda ma’naviy jasorat tuyg‘usini shakllantirish turli mafkuraviy-ma’naviy tahdidlardan himoya qilishning muhim omilidir.

So‘nggi yillarda milliy tarbiya, milliy ma’naviyat bo‘yicha ko‘plab darsliklar, qo‘llanma va monografiyalar yaratildi va yaratilmoqda.

Tarbiya masalasi ona qornidan boshlanishi, oila va maktabgacha ta’lim muassasalarida davom ettirilib, umumta’lim maktablarida izchil amalga oshirilishi jamiyatda buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar yetishib chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz hamisha demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo‘lgan bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini o‘zining asosiy ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘yib kelgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va qonunchilik jarayoni o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismonan va ma’nan yetuk insonlar qilib tarbiyalashga, ularning jamiyatda o‘z o‘rniga ega va albatta biron kasb yoki hunar egasi bo‘lib yetishishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Dunyoda ma’naviy tahdidlar xavfi ortib borayotgan bir davrda mustaqil va sog‘lom fikrlaydigan, ajdodlarga yuksak hurmat ruhida ularga munosib bo‘lishga intiladigan avlodni tarbiyalash respublikamizda davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan ekan, bu jarayonda faol ishtirok etish har birimizning ayniqsa, biz pedagoglarning muqaddas burchimizdir.

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda eng muhim omillardan yana biri – tarixiy xotira – ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi bo‘lib, o‘tganlar xotirasini yodda saqlagan holda, e’zozlab yashash demakdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, yoshlarimiz qalbi va ongini milliy tarbiya asosida olib borilishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy davlatchilik asoslari milliy o‘zlikni anglash tamoyili bilan tobora mustahkamlanmoqda. Milliy-ma’naviy yangilanish, qadriyatlar qayta tiklanishi, iqtisodiy yuksalish taraqqiyot omiliga aylandi.

Yoshlarimizni har kuni, har onda fidoyi bo‘lishi, o‘zining tomchi va tomchi, zarrama-zarra o‘z oldiga qo‘ygan buyuk bunyodkorlik, yaratuvchanlik maqsadlar sari charchamay, toliqmay safarbar etib borishi, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirib borishi bu ulardagi milliy tarbiya, milliy ma’naviyat ifodasidir.

Bugun yoshlarimizning mustaqil fikrlashi, ma’naviy olami, ijtimoiy faolligi o‘sib borayotgani barcha yutuqlar poydevoriga, kuch-qudrat manbaiga aylanganligini, ayniqsa yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, erishilayotgan yutuqlarning negizida inson omili hal qiluvchi rol o‘ynayotganini kuzatish mumkin.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ham aynan tarbiya bilan bog‘liq. Darhaqiqat, buyuk faylasuf Aflotun “Yaxshilar mas'uliyat bilan ish qilishlari uchun qonunlarga muhtoj bo‘lmaydilar. Yomonlar qonunlarga chap berish uchun yo‘l topadilar” deya bejiz aytmagan. Milliy tarbiyaga ega bo‘lmagan, milliy ma’naviyat qadrlanmagan jamiyatda na qonunlar ishlaydi, na mehr-oqibat g‘alaba qozonadi.

Hozirgi kunda yoshlar tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilayotganligi yoshlar uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanishlari lozim, zero kelajak yoshlar qo‘lida ekanligini hyech qachon unutmasliklari, bizgacha asrab avaylab yetib kelgan milliy, ma’naviy me'roslarimizni bizdan keyingi avlodlarga yetkazishlari lozimligini yana bir bor unutmaslik kerak.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Umaralieva M.A. Ways to develop the knowledge, skills and abilities of parents and officials of district’s quarterin order to create a full-fledged lifestyle for children with disabilities// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 12, Issue 07, July 2022 SJIF 2022 = 8.252 A peer reviewed journal. DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00717.0. r. 117-120.

2. Umaralieva M.A. Milliy tarbiya, milliy ma’naviyatga e’tiborsizlik – o‘zlikni anglashga tahdiddir// Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yoshlarni xarbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari// Respublika ilmiy-amaliy anjuman.–T.2022 yil.20 may – 341-343b.

3. Umaralieva M.A. Social policy for increasing women’s activity in solving women’s social problems in Uzbekistan//Fars international jurnal of education, social science humanities\\ Journal ISSN: 2945-4492 SJIF 2023 = 6.786 peer reviewed journal.(Finlyandiya).

4. Umaralieva M.A. Development of pedagogical competences of teachers in inclusive educational environment and mechanisms of using effective methods.// European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices ISSN (E): 2938-3625.Volume 1, Issue 2, May, 2023.P.181-187.

5. Umaralieva M.A. Specific characteristics of the organization of the professional activity of general secondary education institutions teachers in the conditions of inclusive education// American journal of social sciences and humanity research (ISSN – 2771-2141)volume 03 ISSUE 12 PAGES: 208-214 SJIF IMPACT FACTOR (2023: 7. 164) OCLC – 11211056 P.208-214.